

2023- yil yanvar-oktabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023- yil** yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **554793,0 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022- yilning** yanvar-oktabr oylariga nisbatan **100687,8 ming AQSH** dollariga yoki **22,2 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **554793,0** **+22,2 %**
(2022- y.: **454105,2**)



Saldo

2023- y.: **124182,4**
(2022- y.: **33863,2**)



Eksport

2023- y.: **339487,7** **+39,1 %**
(2022- y.: **243984,2**)



Tovarlarni: **336270,3**



Xizmatlar: **3217,4**



Import

2023- y.: **215305,3** **+2,5 %**
(2022- y.: **210121,0**)



Tovarlarni: **213708,1**



Xizmatlar: **1597,2**






Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






TSAda eksport hajmi **339487,7** ming AQSH dollariga (**39,1 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **215305,3** ming AQSH dollariga (**2,5 %** ga ko‘paydi).

Hisobot davrida **124182,4** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
(2023- yil yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari)

XXR	Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	BAA	Qozog‘iston
TSA – 135437,1	TSA – 89568,3	TSA – 80986,8	TSA – 38857,8	TSA – 30361,9
Eksport: 36091,5 Import: 99345,6	Eksport: 74512,3 Import: 15056,0	Eksport: 57642,1 Import: 23344,7	Eksport: 37257,6 Import: 1600,2	Eksport: 14320,7 Import: 16041,2
 24,4 %	 16,1 %	 14,6 %	 7,0 %	 5,5 %

Pokiston	AQSH	Latviya	Polsha	Tojikiston
TSA – 19536,2	TSA – 17149,0	TSA – 15884,3	TSA – 15465,8	TSA – 11216,1
Eksport: 18146,6 Import: 1389,6	Eksport: 14494,4 Import: 2654,6	Eksport: 72,7 Import: 15811,6	Eksport: 14357,3 Import: 1108,5	Eksport: 10732,1 Import: 484,0
 3,5 %	 3,1 %	 2,9 %	 2,8 %	 2,0 %

Qashqadaryo viloyati jahonning **74** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**24,4 %**), Turkiyada (**16,1 %**), Rossiya Federatsiyasida (**14,6 %**), BAAda (**7,0 %**), Qozog'istonda (**5,5 %**), Pokistonda (**3,5 %**) va AQSHda (**3,1 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 89568,3



Rossiya Federatsiyasi – 80986,8



BAA – 38857,8












Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **12** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **8** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
XXR	92821,8	81793,8	135437,1
 <i>Eksport</i>	28969,5	13278,5	36091,5
<i>Import</i>	63852,3	68515,3	99345,6
Turkiya	101941,5	116225,4	89568,3
 <i>Eksport</i>	58819,5	88253,2	74512,3
<i>Import</i>	43122,0	27972,2	15056,0
Rossiya Federatsiyasi	62051,4	75407,1	80986,8
 <i>Eksport</i>	33810,4	52953,6	57642,1
<i>Import</i>	28241,0	22453,5	23344,7
BAA	1128,3	909,5	38857,8
 <i>Eksport</i>	365,1	690,2	37257,6
<i>Import</i>	763,2	219,3	1600,2
Qozog'iston	29630,0	21596,4	30361,9
 <i>Eksport</i>	13599,7	9742,2	14320,7
<i>Import</i>	16030,3	11854,2	16041,2
Pokiston	16128,4	10911,4	19536,2
 <i>Eksport</i>	15789,6	10724,3	18146,6
<i>Import</i>	338,8	187,1	1389,6
AQSH	1755,9	1513,9	17149,0
 <i>Eksport</i>	14,2	12,6	14494,4
<i>Import</i>	1741,7	1501,3	2654,6
Latviya	1506,7	265,0	15884,3
 <i>Eksport</i>	62,4	210,1	72,7
<i>Import</i>	1444,3	54,9	15811,6
Polsha	5152,7	10413,7	15465,8
 <i>Eksport</i>	4500,9	8860,7	14357,3
<i>Import</i>	651,8	1553,0	1108,5
Tojikiston	12817,3	3767,4	11216,1
 <i>Eksport</i>	12428,6	1837,9	10732,1
<i>Import</i>	388,7	1929,5	484,0

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Misir	1494,7	1550,4	10507,4
	<i>Eksport</i>	1475,2	1550,0	10491,5
	<i>Import</i>	19,5	0,4	15,9
	Vetnam	734,2	2487,6	10062,7
	<i>Eksport</i>	150,0	2487,4	10000,4
	<i>Import</i>	584,2	0,2	62,3
	Eron Islom Respublikasi	9429,9	17476,8	9839,0
	<i>Eksport</i>	7213,8	14258,0	8361,2
	<i>Import</i>	2216,1	3218,8	1477,8
	Qirg'iz Respublikasi	7661,0	16359,7	9304,0
	<i>Eksport</i>	6408,5	10110,9	4465,2
	<i>Import</i>	1252,5	6248,8	4838,8
	Hindiston	4178,5	10672,3	6851,5
	<i>Eksport</i>	3324,6	7136,0	4969,4
	<i>Import</i>	853,9	3536,3	1882,1
	Afg'oniston	11313,2	10148,6	6476,5
	<i>Eksport</i>	11302,0	9959,5	6401,1
	<i>Import</i>	11,2	189,1	75,4
	Germaniya	7320,9	15956,2	5429,6
	<i>Eksport</i>	428,2	1310,6	259,0
	<i>Import</i>	6892,7	14645,6	5170,6
	Koreya Respublikasi	4214,2	4948,6	4500,9
	<i>Eksport</i>	8,3	261,8	9,3
	<i>Import</i>	4205,9	4686,8	4491,6
	Litva	1229,8	1447,3	3965,2
	<i>Eksport</i>	194,6	0,0	0,0
	<i>Import</i>	1035,2	1447,3	3965,2
	Belarus Respublikasi	2866,9	8069,7	3794,9
	<i>Eksport</i>	901,2	1278,6	1609,5
	<i>Import</i>	1965,7	6791,1	2185,4



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-oktabr oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	554793,0	122,2	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	22764,7	120,7	4,1
Dehqonobod	17019,4	111,4	3,1
Qamashi	14919,2	91,0	2,7
Qarshi	71281,9	65,2	12,8
Koson	30357,4	63,1	5,5
Kitob	27287,6	59,9	4,9
Mirishkor	9528,7	87,0	1,7
Muborak	5583,1	50,6	1,0
Nishon	94805,9	6,5 m.	17,1
Kasbi	101250,8	186,6	18,3
Ko'kdala	8068,4	2,4 m.	1,5
Chiroqchi	8236,5	123,2	1,5
Shahrisabz	9662,8	95,4	1,7
Yakkabog'	17382,0	105,5	3,1
Qarshi sh.	110840,4	173,8	20,0
Shahrisabz sh.	5747,3	62,8	1,0
Boshqalar	56,9	21,4	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Qarshi shahri **20,0 %** ulush bilan **110840,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Muborak tumani **1,0 %** ulush bilan **5583,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **25,6 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,5 %** ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **29,2 %** ga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi **74,4 %** ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-oktabr oylari holatiga ko'ra, **142207,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **93534,7** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **48672,6** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 80986,8
Eksport – 57642,1
Import – 23344,7



Qozog'iston

TSA – 30361,9
Eksport – 14320,7
Import – 16041,2



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 9304,0
Eksport – 4465,2
Import – 4838,8



Belarus Respublikasi

TSA – 3794,9
Eksport – 1609,5
Import – 2185,4



Tojikiston

TSA – 11216,1
Eksport – 10732,1
Import – 484,0



Ozarbajjon

TSA – 2062,1
Eksport – 1490,0
Import – 572,1



Moldova Respublikasi

TSA – 2111,9
Eksport – 2111,9
Import – 0,0



Ukraina


TSA – 900,0
Eksport – 718,8
Import – 181,2




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**61,6 %**), Qozog'iston (**15,3 %**) hamda Tojikiston (**11,5 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **124744,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **78334,5** ming AQSH dollari, import hajmi esa **46410,1** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **196** taga yetdi va ular tomonidan **339487,7** ming AQSH dollari qiymatini hamda (2022- yilning mos davriga nisbatan **39,1 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-oktabr oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-oktabr oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	243 984,2	339 487,7	114,5	139,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	36 295,8	45 020,3	103,5	124,0	14,9	13,3
Ichimliklar va tamaki	655,1	577,5	186,9	88,2	0,3	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	20 328,1	24 719,2	166,9	121,6	8,3	7,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	8 380,2	63 067,9	42,6	7,5 m.	3,4	18,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	772,8	82,3	68,4 m.	10,6	0,3	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	2 631,8	1 452,3	36,2	55,2	1,1	0,4
Sanoat tovarlari	159 823,1	187 903,3	125,8	117,6	65,5	55,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2 093,9	4 328,4	3,9 m.	2,1 m.	0,9	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	8 775,5	9 119,1	2,7 m.	103,9	3,6	2,7
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	4 227,9	3 217,4	54,5	76,1	1,7	0,9


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,1 %** ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (**55,3 %**), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (**18,6 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**13,3 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga **93534,7** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning **27,6 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, XXR, Pokiston, AQSH va Polsha kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **74,3 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr oylari % da)



QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-oktabr oylari yillar kesimida)*



Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	88253,2	74512,3	150,0	84,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	52953,6	57642,1	156,6	108,9	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	690,2	37257,6	189,0	54,0 m.	17	3
XXR	13278,5	36091,5	45,8	2,7 m.	4	4
Pokiston	10724,3	18146,6	67,9	169,2	5	6
AQSH	12,6	14494,4	88,7	1150,3 m.	18	7
Polsha	8860,7	14357,3	196,9	162,0	9	5
Qozog'iston	9742,2	14320,7	71,6	147,0	8	9
Tojikiston	1837,9	10732,1	14,8	5,8 m.	13	8
Misir	1550,0	10491,5	105,1	6,8 m.	14	11
Vetnam	2487,4	10000,4	16,6 m.	4,0 m.	11	13
Eron Islom Respublikasi	14258,0	8361,2	197,6	58,6	3	10
Afg'oniston	9959,5	6401,1	88,1	64,3	7	12
Hindiston	7136,0	4969,4	2,1 m.	69,6	10	14
Qirg'iz Respublikasi	10110,9	4465,2	157,8	44,2	6	16
Bangladesh	-	3248,2	-	-	-	15
Moldova Respublikasi	2288,8	2111,9	134,6	92,3	12	18
Marokash	-	1941,7	-	-	-	17
Belarus Respublikasi	1278,6	1609,5	141,9	125,9	16	19
Ozarbayjon	1548,7	1490,0	5,2 m.	96,2	15	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-oktabr oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	339487,7	139,1	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	5715,0	99,2	1,7
Dehqonobod	8057,9	133,0	2,4
Qamashi	9468,7	70,5	2,8
Qarshi	59859,0	75,7	17,6
Koson	27267,0	86,3	8,0
Kitob	8446,4	100,1	2,5
Mirishkor	6073,2	82,2	1,8
Muborak	3552,8	42,3	1,1
Nishon	73256,5	36,4 m.	21,6
Kasbi	89678,3	2,6 m.	26,4
Ko'kdala	6232,7	2,4 m.	1,8
Chiroqchi	7379,4	177,8	2,2
Shahrisabz	8033,4	119,4	2,4
Yakkabog'	7179,2	79,2	2,1
Qarshi sh.	16774,5	74,1	4,9
Shahrisabz sh.	2456,8	108,9	0,7
Boshqalar	56,9	21,4	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Kasbi

89678,3

Nishon

73256,5

Qarshi

59859,0

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Shahrisabz sh.

2456,8

Muborak

3552,8

G'uzor

5715,0

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **26,4 %** bilan **89678,3** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,7 %** bilan **2456,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI









So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo‘yicha **211648,7** ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **62,3** % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **22,3** % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**87,6** %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**9,9** %) asosiy ulushni egallagan.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil
Jami		172992,8	211648,7
	Ip kalava	149615,3	187228,6
	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	20062,9	19545,9
	Trikotaj mato	1019,4	2267,0
	Gazlamalar	1295,2	2607,2
	Paypoq mahsulotlari	-	-

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari)*



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
	Turkiya	87658,4	74116,6	84,6
	Rossiya Federatsiyasi	27773,6	39053,8	140,6
	XXR	11732,3	35541,8	3,0 m.
	Polsha	8363,3	13712,0	164,0
	Misir	1550,0	10491,5	6,8 m.
	Vetnam	2487,4	10000,4	4,0 m.
	Eron Respublikasi	12037,0	7329,9	60,9
	Qirg‘iz Respublikasi	7515,7	3248,2	43,2
	Qozog‘iston	2383,2	2493,9	104,6
	Moldova Respublikasi	2223,3	2156,8	97,0
	Marokash	-	2111,9	-
	Tojikiston	1240,5	1941,7	156,5
	Belarus Respublikasi	1230,4	1750,6	142,3
	Pokiston	2443,8	1498,0	61,3
	Boshqa davlatlar		5051,6	116,0



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.


To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**35,0 % – 74116,6** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**18,4 % – 39053,8** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-oktabr oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **3217,4** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,9 %** ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **23,9 %** ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**76,7 %**), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**21,5 %**) va safarlar (turizm) (**1,8 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi **215305,3** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,5 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**60,6 %**) sanoat tovarlari (**11,9 %**), hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**6,9 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-oktabr oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **5184,3** ming AQSH dollariga kupaydi va **215305,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1597,2** ming AQSH dollariga yetdi.




QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-oktabr oylari holati)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	210121,0	215305,3	87,8	102,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16182,4	14768,3	84,6	91,3	7,7	6,9
Ichimliklar va tamaki	-	33,8	-	-	-	-
Yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar	9664,4	6719,3	79,8	69,5	4,6	3,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	8513,3	10145,2	138,0	119,2	4,1	4,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1174,3	911,0	3,0 m.	77,6	0,6	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	19284,3	18606,4	90,3	96,5	9,2	8,7
Sanoat tovarlari	27786,9	25677,6	106,0	92,4	13,2	11,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	116462,3	130500,9	78,7	112,1	55,4	60,6
Turli xil tayyor buyumlar	7028,5	6345,6	158,6	90,3	3,3	3,0
Boshqa tovarlar	3527,9	-	-	-	1,7	-
Xizmatlar	496,7	1597,2	34,8	3,2 m.	0,2	0,7

2023- yil yanvar-oktabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **22,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,1 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-oktabr oylarida Qashqadaryo viloyati **60** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Koreya Respublikasi) jami importning **83,2 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-oktabr oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-oktabr oylari holati)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	68515,3	99345,6	107,3	145,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	22453,5	23344,7	79,5	104,0	3	4
Qozog'iston	11854,2	16041,2	73,9	135,3	5	2
Latviya	54,9	15811,6	3,8	288,0 m.	20	3
Turkiya	27972,2	15056,0	64,9	53,8	2	5
Germaniya	14645,6	5170,6	2,1 m.	35,3	4	6
Qirg'iz Respublikasi	6248,8	4838,8	5,0 m.	77,4	8	8
Koreya Respublikasi	4686,8	4491,6	111,4	95,8	9	9
Litva	1447,3	3965,2	139,8	2,7 m.	17	7
Yaponiya	11778,3	3152,3	8,8 m.	26,8	6	12
Amerika Qo'shma Shtatlari	1501,3	2654,6	86,2	176,8	16	13
Italiya	1552,1	2374,1	103,2	153,0	15	10
Belarus Respublikasi	6791,1	2185,4	3,5 m.	32,2	7	11
Hindiston	3536,3	1882,1	4,1 m.	53,2	10	15
Kanada	2038,2	1604,9	110,2	78,7	13	17
Birlashgan Arab Amirligi	219,3	1600,2	28,7	7,3 m.	18	14
Eron Islom Respublikasi	3218,8	1477,8	145,2	45,9	11	18
Pokiston	187,1	1389,6	55,2	7,4 m.	19	16
Niderlandiya	2605,4	1261,6	117,7	48,4	12	19
Polsha	1553,0	1108,5	2,4 m.	71,4	14	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-oktabr oylari)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	215305,3	102,5	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	17049,7	130,2	7,9
Dehqonobod	8961,5	97,2	4,2
Qamashi	5450,5	184,0	2,5
Qarshi	11422,9	37,8	5,3
Koson	3090,4	18,8	1,4
Kitob	18841,2	50,7	8,8
Mirishkor	3455,5	97,1	1,6
Muborak	2030,3	76,9	0,9
Nishon	21549,4	172,2	10,0
Kasbi	11572,5	57,3	5,4
Ko'kdala	1835,7	2,5 m.	0,9
Chiroqchi	857,1	33,8	0,4
Shahrisabz	1629,4	47,8	0,8
Yakkabog'	10202,8	137,8	4,7
Qarshi sh.	94065,9	2,3 m.	43,7
Shahrisabz sh.	3290,5	47,7	1,5
Boshqalar	-	-	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 94065,9

Nishon 21549,4

Kitob 18841,2

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Chiroqchi 857,1

Shahrisabz 1629,4

Ko'kdala 1835,7

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **43,7** % bilan **94065,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chiroqchi tumani **0,4** % bilan **857,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **130500,9** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **12,1** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **60,6** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-oktabr oylari)




2023- yil yanvar-oktabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14038,6** ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **75082,5** ming AQSH dollari (**57,5** %), Latviya - **15387,9** ming AQSH dollari (**11,8** %) va Turkiya – **12439,4** ming AQSH dollari (**9,5** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **25677,6** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,6 %** ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **11,9 %** ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-oktabr oylari ulushi, % da)

15541,5 ming
AQSH doll.
ulushi – 60,5 %

3683,8 ming
AQSH doll.
ulushi – 14,3 %

1186,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 4,6 %



XXR



Rossiya
Federasiyasi



Turkiya

1175,4 ming
AQSH doll.
ulushi – 4,6 %

747,9 ming
AQSH doll.
ulushi – 2,9 %



Eron Islom
Respublikasi



Hindiston




2023- yil yanvar-oktabr oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2109,3** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- **15541,5** ming AQSH dollari (**60,5 %**), Rossiya Federasiyasi- **3683,8** ming AQSH dollari (**14,3 %**) va Turkiya – **1186,2** ming AQSH dollari (**4,6 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-oktabr oylari ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **1597,2** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **0,7** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**73,3** %), ga tegishli bo'ldi.